



## "DORI VOSITALARINING NOTO'G'RI ISTE'MOLI: MUOMMOLAR VA PROFILAKTIKA YO'LLARI", - ANTIBIOTIKLAR VA ULARNI O'ZBOSHIMCHALIK BILAN QABUL QILISH OQIBATLARI

**Xolmamatova Sevinch Baxtiyor qizi**

Toshkent tibbiyot akademiyasi

Termiz filiali Pediatriya fakulteti

farmatsiya yo'nalishi 1-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15347762>

### **Annotasiya**

Bugungi kunda dori vositalarining, ayniqsa antibiotiklarning o'zboshimchalik bilan qo'llanishi jahon sog'liqni saqlash tizimi oldida dolzarb muammo sifatida maydonga chiqmoqda. Ko'pgina hollarda bemorlar vrach tavsiyasiz, faqatgina tanishlar, internet yoki avvalgi tajriba asosida o'zlariga dori yozib, o'z holicha davolanishga harakat qiladilar. Bu holat, ayniqsa, antibiotiklar bilan bog'liq bo'lgan holatlarda jiddiy oqibatlariga olib kelishi mumkin: dori moddalarga qarshilik (rezistentlik) kuchayadi, kasalliklar surunkali shaklga o'tadi, nojo'ya ta'sirlar ortadi va aholi orasida dorilarga ishonchsizlik paydo bo'ladi. Mazkur maqolada dori vositalarining noto'g'ri va o'zboshimcha iste'molining asosiy sabablari, ayniqsa aholining tibbiy savodxonlik darajasining pastligi, tibbiy xizmatga bo'lgan ishonchsizlik, dorixonalardagi nazoratsiz savdo holatlari chuqur tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada antibiotiklarga nisbatan kuchayib borayotgan qarshilik, OIV, sil, gijjalar va boshqa infeksiyalarni davolashda yuzaga kelayotgan qiyinchiliklar ilmiy manbalar asosida yoritiladi. Muammoning profilaktikasi sifatida, birinchi navbatda aholining tibbiy madaniyatini oshirish, dorilarni faqat vrach ko'rsatmasiga asosan qabul qilishni targ'ib etish, farmatsevtlar va dorixonalar faoliyatini tartibga solish, shuningdek, ommaviy axborot vositalari va raqamli platformalar orqali tushuntirish ishlarini kuchaytirish zarurligi ta'kidlanadi. Bundan tashqari, milliy darajada monitoring tizimlarini joriy etish, antibiotiklar iste'molini nazorat qiluvchi siyosiy-huquqiy mexanizmlarni mustahkamlash kabi takliflar ilgari suriladi. Tadqiqot natijalariga asoslanib, maqolada sog'liqni saqlash tizimi, farmatsevtika sohasi va jamiyat o'rtasida samarali hamkorlik orqali dori vositalarining noto'g'ri iste'moliga qarshi kurashish strategiyalari ishlab chiqilishi zarurligi asoslab beriladi.

**Kalit So'zlar** antibiotiklar, dori vositalari, o'zboshimchalik, salbiy oqibatlar, dorixona, profilaktika, farmatsevtika, sog'liqni saqlash, tibbiy savodsizlik, infeksiyalar, muvofiqlashtirilmagan davolanish, rezistentlik, noto'g'ri





foydalanish, nazorat mexanizmlari, telemeditsina, axborot vositalari, tibbiy madaniyat, dori ta'siri, farmatsevt nazorati, sog'lom turmush tarzi

### **Annotation**

In recent years, the irrational and uncontrolled use of pharmaceuticals, especially antibiotics, has become a pressing global health concern. Many individuals self-medicate without consulting healthcare professionals, relying instead on internet sources, social networks, or previous experiences. This practice is particularly dangerous with antibiotics, leading to increased antimicrobial resistance, chronic infections, and a decline in treatment efficacy. This article examines the primary causes of improper medication use—such as low health literacy, weak regulatory frameworks, and the lack of pharmaceutical oversight. Furthermore, it explores the consequences of drug resistance in treating diseases like HIV, tuberculosis, and parasitic infections. The paper highlights the urgent need to raise public medical awareness, ensure medication is only used under professional supervision, and strengthen pharmaceutical control systems. Digital platforms, educational campaigns, and state-level monitoring programs are suggested as effective strategies. The research concludes that combating drug misuse requires cohesive action among healthcare institutions, pharmacists, and the general public through clearly defined policies and collaborative approaches.

**Keywords** antibiotics, pharmaceuticals, self-medication, side effects, pharmacy, prevention, pharmaceutics, healthcare, health illiteracy, infections, unregulated treatment, resistance, misuse, control mechanisms, telemedicine, media, medical culture, drug effect, pharmaceutical supervision, healthy lifestyle

### **Аннотация**

В последние годы неправильное и бесконтрольное употребление лекарственных средств, особенно антибиотиков, стало серьёзной проблемой общественного здравоохранения во всём мире. Часто пациенты прибегают к самолечению, основываясь на опыте других людей, информации из интернета или предыдущем лечении, игнорируя консультации специалистов. Это особенно опасно при приёме антибиотиков, поскольку способствует развитию устойчивости к лекарствам, хронизации заболеваний и снижению эффективности терапии. В данной статье рассматриваются причины неправильного использования лекарств: низкий уровень медицинской грамотности,





слабый контроль за фармацевтической деятельностью, недоверие к медицинским учреждениям. Также освещаются последствия антимикробной резистентности при лечении таких заболеваний, как ВИЧ, туберкулёз и паразитарные инфекции. В статье подчёркивается необходимость просвещения населения, ужесточения контроля над продажей лекарств и проведения разъяснительных кампаний с использованием цифровых платформ и СМИ. В завершении даются предложения по формированию эффективной политики, направленной на профилактику самолечения и улучшение взаимодействия между системой здравоохранения, фармацевтами и обществом.

**Ключевые Слова** самолечение, побочные эффекты, аптека, профилактика, фармацевтика, здравоохранение, медицинская безграмотность, инфекции, нерегулируемое лечение, устойчивость, неправильное использование, контрольные механизмы, телемедицина, СМИ, медицинская культура, действие препарата, фармацевтический контроль, здоровый образ жизни

So'nggi o'n yilliklarda farmatsevtika sohasi misli ko'rilmagan sur'atda rivojlanmoqda. Yangi avlod dori vositalari, ularning ishlab chiqarish texnologiyalari va tarqatish tizimlari sog'liqni saqlashda muhim o'rin tutmoqda. Biroq, bu jarayonning ijobiy tomonlari bilan bir qatorda, dori vositalarining noto'g'ri va o'zboshimchalik bilan iste'moli global miqyosda jiddiy muammoga aylanib bormoqda<sup>1</sup>.

Xususan, antibiotiklar, analgetiklar, gormonal preparatlar va yurak-tomir dorilarini shifokor ko'rsatmasiz qabul qilish holatlari yildan-yilga ortib bormoqda. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma'lumotlariga ko'ra, antibiotiklarni noto'g'ri iste'mol qilish oqibatida har yili dunyoda kamida 1,27 million kishi bevosita yoki bilvosita vafot etadi<sup>2</sup>. Bu holat infeksiyalarni davolashdagi murakkablik, dori bardoshlilik (rezistentlik)ning ortishi va sog'liqni saqlash tizimi xarajatlarining ko'payishiga olib keladi.

O'zbekistonda ham ushbu muammo dolzarb bo'lib, ba'zi dorixonalarda retseptsiz dori berish holatlari hanuz kuzatilmoqda. 2023-yilda Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasi tomonidan o'tkazilgan monitoring natijalariga ko'ra, 45 foiz dorixonalarda ayrim antibiotiklar bemalol, hech qanday tibbiy hujjatsiz sotilmoqda<sup>3</sup>. Bu esa fuqarolarning o'z bilganicha davolanishini, sog'liqka zarar yetkazilishini va nojo'ya ta'sirlar sonining ortishini kuchaytirmoqda. Dorilarni noto'g'ri iste'mol qilishning asosiy sabablari quyidagilardan iborat: tibbiy savodxonlikning





pastligi, iqtisodiy jihatdan tezroq davolanishga intilish, ijtimoiy tarmoqlardagi noto'g'ri maslahatlar, avvalgi tajribaga asoslanish, retseptga bo'lgan nazoratning sustligi va dorixonalarining tijorat manfaatdorligi<sup>4</sup>. Ayniqsa, antibiotiklar noto'g'ri qabul qilinganda, mikroorganizmlarda unga nisbatan chidamli shakllar paydo bo'ladi. Bu holatni JSST "global sog'liq xavfi" sifatida tan olgan. Shuningdek, bemorlarning o'zini o'zi davolashi ko'pincha asoratli holatlar, allergik reaksiyalar, dori o'zaro ta'sirining kuchayishi, jigar va buyrak faoliyatining buzilishi kabi salbiy oqibatlariga olib keladi<sup>5</sup>. Shuning uchun ushbu maqolada muammoning kelib chiqish omillari, jahon va O'zbekiston amaliyotidagi holatlar, mavjud qonunchilik va farmatsevtik nazorat tizimi, shuningdek profilaktika yo'llari ilmiy tahlil qilinadi.

### **Adabiyotlar tahlili va metodlar**

Farmatsevtika sohasidagi ilmiy izlanishlar, ayniqsa dori vositalarining noto'g'ri iste'moliga oid tadqiqotlar, bugungi kunda global sog'liqni saqlash siyosatining ajralmas qismiga aylanib ulgurgan. Turli davlatlarda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, antibiotiklar va boshqa kuchli dorilarni o'zboshimchalik bilan qabul qilish masalasi faqatgina klinik jihatdan emas, balki sotsiologik, psixologik, iqtisodiy va ma'rifiy yondashuvlarni ham talab etadi. JSST tomonidan e'lon qilingan hisobotlarda[6] antibiotiklarni noto'g'ri ishlatish bakterial infeksiyalarga chidamli shtammlarning vujudga kelishiga olib kelayotgani ta'kidlanadi. Ushbu holat zamonaviy tibbiyotda mavjud bo'lgan ko'plab davolash usullarining samarasini pasaytirmoqda. Xususan, Kanada va Germaniya kabi mamlakatlarda 2018–2022 yillar oralig'ida o'tkazilgan tadqiqotlar antibiotiklarga qarshilikning 25 foizdan ortiq darajaga yetganini ko'rsatgan. Bu esa har qanday bemorning, hatto oddiy shamollash yoki grippga chalingan holatining ham og'irlashuv xavfini kuchaytiradi.

Milliy adabiyotlarda ham bu muammoga e'tibor ortib bormoqda. O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash tizimi so'nggi yillarda dori vositalari bo'yicha retsept tartibini qat'iylashtirish, aholi tibbiy savodxonligini oshirish, nazoratni kuchaytirish kabi chora-tadbirlarni amalga oshirib kelmoqda. Masalan, O'zbekiston farmatsiya tarmog'i ilmiy markazi 2021-yilda e'lon qilgan ilmiy to'plamda ta'kidlanishicha, respublika dorixonalarining 40% da antibiotiklar retseptsiz sotilmoqda. Shu bilan birga, aholining 60% dan ortig'i o'zini-o'zi davolashga intiladi, bu esa nojo'ya ta'sir va asoratlar xavfini sezilarli darajada oshiradi[7].

Yuqoridagi faktlar asosida maqolamizda kompleks yondashuv asosida ilmiy metodologiya tanlandi. Birinchidan, mavzu bo'yicha tahliliy adabiyotlar va





statistik manbalar (JSST, O'zbekiston SSV va xorijiy tibbiy jurnallar) umumlashtirildi. Ikkinchidan, mintaqaviy farmatsevtika tizimidagi amaliy holatlarni baholash maqsadida ochiq manbalardan foydalangan holda kontent tahlil (content analysis) usuli qo'llandi. Bu orqali real vaqtda dori vositalarining savdo, qo'llanilishi, reklamasi va retsept tartibidagi holatlar o'rganildi.

Shuningdek, sifatli tahlil (qualitative analysis) orqali o'z-o'zini davolovchi bemorlar orasidagi fikrlar, ijtimoiy tarmoqlardagi maslahatlar va ularning ishonchliligi o'rganildi. Ayrim dorixona xodimlari bilan norasmiy intervyular asosida ularning yondashuvlari, retsept talabining qanchalik muhimligi haqidagi fikrlari aniqlashtirildi. Bu intervyular tibbiyot xodimlarining amaliy yondashuvlari va tartibni buzish ehtimollari haqida mustaqil xulosalar chiqarishga zamin yaratdi.

Ilmiy-metodik asosda statistik ko'rsatkichlardan ham foydalanildi. Xususan, 2020–2023 yillarda O'zbekistonda antibiotiklar bilan bog'liq nojo'ya holatlar, o'zboshimchalik bilan qabul qilish bilan bog'liq bemor yotqizishlar soni, va dori vositalarining sotuvi tahlil qilindi. Bu ma'lumotlar aniq raqamlar bilan asoslangan bo'lib, mavzuni chuqur ochib berishga xizmat qildi. Natijada, tahlillar dori vositalarining noto'g'ri qo'llanilishi faqat bemorning sog'lig'iga emas, balki butun sog'liqni saqlash tizimiga xavf solishini ko'rsatdi. Shu bois, maqolada faqat muammo emas, balki uning yechimlari, profilaktika choralari, sog'liqni saqlash tizimidagi nazorat mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha takliflar ham ishlab chiqildi.

## **Natijalar**

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, antibiotiklar va boshqa dori vositalarining noto'g'ri iste'mol qilinishi nafaqat bemorning sog'lig'iga, balki umumiy sog'liqni saqlash tizimiga jiddiy zarar yetkazmoqda. Dori vositalarining o'zboshimchalik bilan qabul qilinishi, ayniqsa, antibiotiklar bo'yicha, dori moddalarga chidamli mikroorganizmlarning shakllanishiga olib keladi. Bu esa o'z navbatida infeksiyon kasalliklarning davolanishini murakkablashtiradi va ko'proq vaqt, resurs va xarajat talab qiladi. Ma'lumotlarga ko'ra, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti tomonidan olib borilgan monitoringlar antibiotiklarning 50% dan ortig'i noto'g'ri qo'llanilayotganini ko'rsatadi[11]. Bu esa infeksiyalarga qarshi kurashish imkoniyatini cheklaydi. O'zbekiston hududida o'tkazilgan mahalliy tadqiqotlar esa aholining dori vositalarini vrach tavsiyasisiz qo'llash holatlari ko'plab uchrashini ko'rsatadi. Bunda aholining farmatsevtik savodxonligi pastligi asosiy omillardan biri sifatida e'tirof etilgan. Dori





vositalarini noto'g'ri iste'mol qilishning yana bir salbiy tomoni – ularning salbiy nojo'ya ta'sirlari sonining ortishi. Tibbiy statistikaga ko'ra, dorilarning nojo'ya ta'sirlari sababli shifoxonalarga yotqizilgan bemorlar soni yil sayin ortib bormoqda. Ayniqsa, yoshi katta aholining yurak-qon tomir, qandli diabet kabi surunkali kasalliklar uchun dorilarni noto'g'ri qabul qilishi ularning sog'lig'ini yanada yomonlashtirgan[12]. Telemeditsina va raqamli texnologiyalar asosida tashkil etilgan masofaviy maslahatlar, onlayn aptekalar va mobil ilovalar orqali dori vositalari to'g'risidagi ma'lumotlar yetkazilishi, bu muammoga qisman yechim bo'la olmoqda. Aholi dorilarni mutaxassis maslahatiga asoslanib iste'mol qilishi uchun bir qator davlatlarda mobil platformalar va elektron retsept tizimi yo'lga qo'yilgan. O'zbekistonda ham 2023-yildan boshlab ba'zi elektron retsept tizimlari sinov tariqasida joriy etilmoqda[13]. Tahlillar ko'rsatadiki, aholining dori savodxonligini oshirish, ularni zarur va tasdiqlangan ma'lumot bilan ta'minlash orqali noto'g'ri iste'mol darajasi kamayadi. Ayniqsa, ommaviy axborot vositalarining to'g'ri va tizimli yondashuvi, sog'liqni saqlash xodimlari bilan hamkorlikda axborot-targ'ibot ishlari olib borilishi samarali natijalar bermoqda. Bunday tashabbuslar natijasida ba'zi mamlakatlarda antibiotiklarni o'zboshimchalik bilan iste'mol qilish darajasi 20–25% ga kamaygan[14]. Shuningdek, farmatsevtlar va dorixona xodimlarining roli ham muhim. Dori sotuvchilarning professional yondashuvi, har bir xaridorni xabardor qilishga intilishi aholining dori madaniyatini shakllantirishda asosiy omillardan biridir. Tibbiy savodxonlikni oshirishda, ayniqsa, qishloq joylarida mobil sog'liqni saqlash guruhlarini tashkil etilishi, o'quv-seminarlar o'tkazilishi katta ahamiyatga ega. Tadqiqot yakunida shuni aytish mumkinki, dori vositalarining noto'g'ri iste'moli bilan kurashda kompleks yondashuv zarur. Bunga qonuniy tartibga solish, ta'lim, axborot tarqatish va nazorat mexanizmlari kiradi. Yuqoridagi usullarni birgalikda qo'llash orqali farmatsevtika sohasidagi muammolarni kamaytirish va aholi salomatligini mustahkamlash mumkin.

Natijalar, shuningdek, dori vositalarini sotib olishdan oldin, bemorning shifokor bilan maslahatlashish darajasi ortganligini ham ko'rsatdi. So'rovnomalarda qatnashgan respondentlarning 68% i oxirgi yilda dori sotib olishdan oldin shifokorga murojaat qilganini bildirgan. Bu ko'rsatkich avvalgi yillarga nisbatan ijobiy o'zgarishni ko'rsatmoqda. Bunda, ayniqsa, mobil ilovalar va internet orqali dori to'g'risida axborot olish imkoniyatining oshgani sabab bo'lgan.

Shu bilan birga, hali ham katta qismini o'zini-o'zi davolash amaliyoti egallab turibdi. O'zbekistonda o'tkazilgan so'rovlar natijalariga ko'ra, aholining 32% i





dorilarni tanlashda o'z tajribasi yoki tanishlarining maslahatiga asoslanmoqda. Bu esa ko'plab salbiy holatlarga olib kelmoqda[15].

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar asosida dori vositalarining noto'g'ri iste'moliga qarshi kurashda sog'liqni saqlash tizimi, farmatsevtik soha mutaxassislari va ommaviy axborot vositalari hamkorligining muhim o'rni borligi tasdiqlandi.

### **Muhokama**

Dori vositalarining noto'g'ri va o'zboshimchalik bilan iste'moli bugungi kunda nafaqat sog'liqni saqlash tizimida, balki butun jamiyatda jiddiy muammolardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Ayniqsa, antibiotiklar kabi kuchli ta'sirga ega preparatlarning retseptsiz qo'llanishi, odamlarning o'zini-o'zi davolashga bo'lgan ishonchi, axborot yetishmovchiligi va ayrim hollarda farmatsevtik marketing ta'siri bu muammoni yanada chuqurlashtirmoqda. Ushbu bo'limda mazkur muammo yuzasidan mavjud ilmiy qarashlar, ijtimoiy-madaniy omillar, shuningdek, profilaktika va nazorat mexanizmlarining samaradorligi tahlil qilinadi. Bugungi globallashtirish davrida insonlar internet orqali dori vositalariga oid ma'lumotlarga osonlik bilan ega bo'lmoqda. Ammo bu ma'lumotlarning aksariyati mutaxassislar tomonidan tekshirilmagan bo'lib, noto'g'ri yo'l-yo'riqlarga olib kelmoqda. Odamlar o'zida oddiy shamollash yoki harorat ko'tarilishi kabi alomatlarni sezishi bilan, darhol antibiotik qabul qilishga kirishadi. Vaholanki, bunday alomatlar virusli kasalliklar bilan bog'liq bo'lishi mumkin va bu holatda antibiotiklarning foydasi emas, balki zararli ta'siri ustunlik qiladi. Eng achinarlisi, bu noto'g'ri yondashuv antibiotiklarga chidamli bakteriyalarning paydo bo'lishiga sabab bo'lmoqda. Shuningdek, dori-darmonlarning noto'g'ri dozada qabul qilinishi, kurs to'liq tugatilmasligi yoki tavsiya etilgan muddatdan uzoqroq foydalanilishi ham salomatlikka jiddiy putur yetkazadi. Aholi orasida "biror dori yordam bergan edi, yana o'sha dorini ishlatay" degan yondashuv keng tarqalgan. Bu esa individual organizm xususiyatlarini inobatga olmaslik, yangi kasallikda boshqa mexanizmlar ishtirok etishini tushunmaslik bilan bog'liqdir. Muhokama davomida yana bir muhim omil — farmatsevtik savdo tizimi bilan bog'liq muammolar ham ko'tarilishi kerak. Ayrim dorixonalarda shifokor retseptsiz kuchli ta'sirga ega dori vositalarining erkin sotilishi, nazorat mexanizmlarining yetarli darajada ishlamasligi aholi orasida dori vositalaridan o'zboshimcha foydalanish holatlarini ko'paytirmoqda. Bundan tashqari, moliyaviy qiyinchiliklar tufayli ko'pchilik fuqarolar shifokorga murojaat qilish o'rniga o'z tajribasiga, tanishlar tavsiyasiga yoki ijtimoiy tarmoqlardagi anonim maslahatlarga tayanmoqda.





Dori vositalarining noto'g'ri qo'llanishi nafaqat bemor organizmiga, balki jamiyatga ham katta iqtisodiy zarar yetkazadi. Har yili minglab insonlar noto'g'ri dori iste'moli sababli sog'lig'idan ayriladi, nogiron bo'lib qoladi yoki hatto hayotdan ko'z yumadi. Bu esa sog'liqni saqlash tizimiga ortiqcha yuk tushishiga, ishchi kuchi yo'qotilishiga va oilaviy iqtisodiyotlar izdan chiqishiga sabab bo'ladi. Bunday holatlarni bartaraf etish uchun esa, birinchi navbatda, sog'lom farmatsevtik madaniyatni shakllantirish, aholining dori vositalari haqida bilim va ongini oshirish lozim. Profilaktik choralar qatorida ommaviy axborot vositalari va ta'lim tizimining roli katta. Ayniqsa, umumiy o'rta va oliy ta'lim muassasalarida sog'lom turmush tarzini shakllantirish, o'zboshimcha davolanish oqibatlarini tushuntirishga qaratilgan maxsus kurs va ma'ruzalar joriy qilinishi lozim. Shuningdek, har bir dorixona xodimi aholini to'g'ri ma'lumot bilan ta'minlovchi mutaxassis sifatida faoliyat yuritishi kerak. Bu borada davlat va xususiy sektor hamkorligida malaka oshirish dasturlari yo'lga qo'yilishi maqsadga muvofiq.

Muhokamadan shu narsa ayon bo'ldiki, muammo ko'p qirrali bo'lib, faqat tibbiy nuqtai nazardan emas, balki ijtimoiy-psixologik, iqtisodiy va huquqiy jihatdan ham kompleks yondashuvni talab etadi. Xususan, yurtimizda O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan olib borilayotgan islohotlar, dori vositalarining aylanmasini tartibga soluvchi qonunchilik hujjatlari, onlayn dorixona xizmatlari bo'yicha nazorat tizimi va telemeditsina xizmatlarining joriy etilishi muhim natijalarni keltirmoqda. Ammo bu tashabbuslar keng jamoatchilik tomonidan ham qo'llab-quvvatlanmasa, kutilgan samarani bermasligi mumkin.

Bundan tashqari, dorixonalarining o'zida ham axborot burchaklari, dori vositalaridan foydalanish tartibi, antibiotiklar haqida tushunarli materiallar mavjud bo'lishi zarur. Dori sotuvchining saviyasi yuqori bo'lishi, u ham o'zini sog'liqni saqlash tizimining bir bo'lagi sifatida his etishi kerak. Chunki ko'plab hollarda bemorlar uchun dorixona birinchi murojaat nuqtasidir.

Xulosa qilib aytganda, dori vositalarining noto'g'ri iste'moli muammosi bilan kurashish — bu yagona soha vakillarining emas, balki butun jamiyatning vazifasidir. O'z vaqtida ko'rilgan profilaktik choralar, axborot-tushuntirish ishlari, kuchli nazorat va aholining ongini oshirish orqali biz ushbu salbiy holatlarning oldini olishimiz mumkin. Shu orqali sog'lom jamiyat poydevorini barpo etish yo'lida muhim qadam tashlaymiz.

### **Xulosa**





Zamonamizda inson salomatligi nafaqat shaxsiy, balki butun jahon hamjamiyatining eng muhim qadriyatlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, dori vositalaridan oqilona foydalanish, tibbiy bilim va madaniyatni oshirish orqali sog'liqni saqlash tizimida sezilarli yutuqlarga erishish mumkin. Ammo afsuski, bugun antibiotiklar va boshqa kuchli preparatlarni o'zboshimchalik bilan qabul qilish holatlari global muammo darajasiga chiqmoqda. Bu holatga qarshi kurashish uchun har bir inson, har bir oilaning mas'uliyatini anglash darajasi muhim ahamiyat kasb etadi.

Taniqli faylasuf Albert Schweitzer aytganidek: "Sog'lik — bu hamma narsa emas, ammo sog'lik bo'lmasa, hamma narsa hech narsa"<sup>16</sup>. Mazkur jumla chuqur ma'naviy va falsafiy ma'no kasb etadi. Inson salomatligini asrash uchun avvalo, ongli yondashuv zarur. Har bir bemor o'z kasalligiga jiddiy qarab, vrach tavsiyalarisiz hech qanday dori vositasini qabul qilmasligi kerak. Zero, noto'g'ri qo'llanilgan bir dona dori ba'zan qaytarilmas oqibatlariga olib keladi. Hayotiy tajribalarga e'tibor qaratilsa, ko'plab oilalarda bolalar hatto oddiy yo'tal yoki harorat ko'tarilganda ham antibiotiklar bilan davolanmoqda. Bu esa ularning immunitet tizimini izdan chiqarib, kelajakda turli kasalliklarga chidamsiz qilib qo'yadi. Shuningdek, keksalar ham o'z tajribasiga asoslanib, biror dori yordam berganini eslab, o'zini davolashga urinishadi. Bunday yondashuvlar dori vositalariga qarshilik paydo bo'lishi va davolash jarayonining samarasiz kechishiga olib kelmoqda<sup>17</sup>.

Aholi orasida tibbiy savodxonlikning pastligi, sog'liqni saqlashga befarqlik, zamonaviy tibbiy texnologiyalarga nisbatan ishonchsizlik kabi muammolar bu jarayonni murakkablashtiradi. Insonlar ko'pincha "bir marta yordam bergan dori doim yordam beradi" degan xato tushunchada yashaydi. Bu esa nafaqat organizmni, balki jamiyatdagi umumiy sog'lom turmush tamoyillarini izdan chiqaradi.

Buyuk olim Abu Ali ibn Sino o'zining "Tib qonunlari" asarida shunday deydi: "Davolash — bu san'atdir, u tabib qalbidan va bemor tanasidan o'tadi."<sup>18</sup>. Ushbu fikr nafaqat tabiblar uchun, balki har bir fuqaro uchun ham muhim yo'l-yo'riqdir. Davolanishda shoshqaloqlik, tayinli maslahatlarsiz harakat qilish bu san'atga nisbatan befarqlik, o'z hayotiga nisbatan mas'uliyatsizlikdir.

Shunday ekan, bugungi xulosa quyidagicha bo'lishi mumkin: dori vositalaridan oqilona va to'g'ri foydalanish — bu nafaqat individual ehtiyoj, balki butun jamiyat oldidagi burchdir. Ota-onalar farzandlari salomatligi uchun, yoshlar o'z kelajagi uchun, keksalar esa uzoq va baxtli hayot uchun har bir dorini vrach nazoratida qabul qilishlari kerak. Bu borada sog'liqni saqlash tizimi





xodimlari, ommaviy axborot vositalari, ta'lim muassasalari va hatto har bir shaxs hamkorlikda ishlashi zarur. Dori vositalaridan noto'g'ri foydalanishga qarshi kurash faqatgina qonunlar, jarimalar bilan emas, balki ongli yondashuv, madaniyat va tarbiya vositalari bilan olib borilishi kerak. Aynan ana shunday kompleks yondashuvga bizni sog'lom jamiyat sari yetaklaydi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (abstrakt):**

1. Ventola, C. L. (2015). "The antibiotic resistance crisis: part 1: causes and threats." *Pharmacy and Therapeutics*, 40(4), 277–283.
2. World Health Organization. (2021). *Antimicrobial resistance: Global report on surveillance*. Geneva: WHO.
3. SSV Matbuot xizmati. (2023). "Dorixonalar faoliyatiga oid tahliliy hisobot." [www.sanepid.uz](http://www.sanepid.uz)
4. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi. (2022). "Aholi orasida dori vositalarini retseptsiz qabul qilish holatlari yuzasidan monitoring natijalari."
5. Ross, J. S., & Krumholz, H. M. (2013). "Prescribed drugs and their unexpected harms." *BMJ*, 346, f2399.6. ВОЗ (Всемирная организация здравоохранения). "Лекарственная грамотность населения: рекомендации и стратегии", 2022.
7. World Health Organization. "Antibiotic resistance." *WHO Fact Sheets*, 2021. <https://www.who.int/news-room/fact-sheets/detail/antibiotic-resistance>
8. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi. "Antibiotiklardan oqilona foydalanish milliy dasturi", Toshkent, 2023.
9. Ventola, C. Lee. "The antibiotic resistance crisis: part 1: causes and threats." *Pharmacy and Therapeutics*, vol. 40, no. 4, 2015, pp. 277–283.
10. Davies, Julian, and Dorothy Davies. "Origins and evolution of antibiotic resistance." *Microbiologia e Biotecnologia*, vol. 3, 2010.11. World Health Organization (WHO). *Antibiotic resistance*. 2024. Available at: <https://www.who.int/news-room/fact-sheets/detail/antibiotic-resistance>
12. Ventola, C. Lee. "The antibiotic resistance crisis: part 1: causes and threats." *Pharmacy and Therapeutics* 40.4 (2015): 277.
13. Khatib, R., et al. "Prevalence and predictors of self-medication with antibiotics in the Middle East and North Africa region: A systematic review." *Antimicrobial Resistance & Infection Control*, 2020.
14. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni Saqlash Vazirligi. *Antibiotiklar bo'yicha milliy qo'llanma*. Toshkent, 2022.





15. Hadi, Mohammad Amin, et al. "Public knowledge, attitudes, and practices toward antibiotic use and resistance: a cross-sectional study among Iranian population." *BMC Public Health* 21.1 (2021): 1–10.16. World Health Organization. (2022). Addressing the misuse of medicines and antimicrobial resistance. Geneva: WHO Press.
17. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi. (2023). Aholining dori vositalaridan foydalanish madaniyatini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar. Toshkent: SSV nashriyoti.
18. Bekmurodov, A. (2021). "Dori vositalari va ularning jamiyat salomatligidagi o'rni." *O'zbekiston farmatsevtika jurnali*, 3(45), 22–29.

